

“FIRDAVS UL-IQBOL” ASARINING MUHIM AHAMIYATLARI

Zokirova Mushtariy

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining tarjima nazariyasi

va amaliyoti fakulteti 2304 guruh talabasi

Scientific advicer: D.D.Borasulova

**Annotatsiya:** Ushbu maqola “Firdavs ul-iqbol” asari haqida uning yozilish tarixi, tarixiy ahamiyati va O'zbekistonda va chet davlatlaridagi tutgan o'rni haqida yoritib beradi. Shuningdek asarning kompozitsion tuzulishi va asardagi qo'llanilgan janrlarga ham alohida to'xtalib o'tadi. Bu asar adabiy-estetik qiymatga ega asar hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Shermuhammad Munis, Eltuzarxon, Ogahiy tarjimalari, turli janrlar, Yuriy Bregel, Rossiya Fanlar Akademiyasi, badiiy-estetik ahamiyat.

**Аннотация:** В данной статье освещается произведение «Фирдавс уль-Икбал», история его написания, историческое значение и место в Узбекистане и зарубежных странах. Также уделяется внимание композиционной структуре произведения и жанрам, использованным в произведении. Данное произведение представляет собой произведение литературной и эстетической ценности.

**Ключевые слова:** Шермухаммад Мунис, Эльтузар-хан, переводы Огахи, разные жанры, Юрий Брегель, Российская академия наук, художественно-эстетическое значение.

**Annotation:** This article gives information about "Firdavs ul-Iqbal", its writing history, historical significance and its place in Uzbekistan and foreign countries. It also focuses on the compositional structure of the work and the genres used in the work. This work is a work of literary and aesthetic value.

**Key words:** Shermuhammad Munis, Eltuzar Khan, Ogahi's translations, different genres, Yuri Bregel, Russian Academy of Sciences, artistic and aesthetic significance.

“Firdavs ul-iqbol” asarining yaratilish tarixi .

“Firdavs ul-iqbol” asari “Baxt bog’i” yoki “Baxt-saodat bog’i” nomlari bilan atalib Shermuhammad Munis Xorazmiy tomonidan yaratilgan. Qariyb bir yarim asrdirki, Munis tomonidan boshlanib, Ogahiy nihoyasiga yetkazgan “Firdavsu-l-iqbol” asari adabiyotshunos, matnshunos va tarixshunoslar e’tiborini tortib keladi. “Firdavsu-l-iqbol” badiiy-tarixiy nasrda Ogahiy uchun katta tajriba maktabi bo’lgani, shubhasiz. Bu asarni yozish jarayonida orttirilgan tajriba keyinchalik shu turdagi boshqa asarlarini yozishda unga qo’l kelgani aniq.

Munisning yozishicha, Xiva xoni Eltuzarxon uni o’z saroyiga chaqirib, bunday amr qiladi: “...kerakkim, bizning nasabi humoyunimizni so’z devonida kursinishin va ajdodi amjodimiz asomiysin tarix xotamida naqshi nigin qilsang va o’z holotimiz va ba’zi futuhotimiz bilakim, ziynati afsona va nosixi “Shahnoma”dur, nazm rishtasig’a durri maknun tersang va nasr bisotig’a gunogun ziynat bersang, to bo’lg’aykim, davron sahoifi

fano tundbodi bila parishon bo'lub, olam koshonasi adam seli bila vayron bo'lg'uncha avsofi hamidamiz zamon avroqida boqiy qolg'ay va zikri pisandidamiz jahon majolisida salotin bazmig'a sho'rish solg'ay". Bundan ko'rishimmiz mumkinki Munisning asarlari hatto shohlarning ham e'tiborni tortgan o'sha paytning o'zidayoq .

Munisning „Firdavs ul-iqbol“ asari uzoq, davrni qamrab olgan bo'lib, Markaziy Osiyo, ayniqsa, Xiva xonligi tarixini o'rganishda qimmatli manbadir. Asarda Xorazmning qadimiy davri bilan bir qatorda, Xiva xonligining 1825-yilgacha bo'lgan siyosiy tarixi bayon etilgan, toj-taxt, boyluk uchun olib borilgan kurashlar va, shuningdek, Xiva xonlarining qo'shni turkman va qoraqalpoq xalqlari bilan bo'lgan munosabatlari haqida ham ko'plab ma'lumotlar keltirilgan.

Asar muqaddima, 5 bob va xotimadan iborat. 1-bobda Odam Atodan to Nuh payg'ambar avlodigacha bo'lgan haftanomaodisalar yoritilgan. 2-bobda Yofasdan Qo'ng'iroq sho'basigacha bo'lgan mo'g'ul hukmdorlari davri xususida fikr yuritilgan. 3-bobda Kurlos avlodiga mansub podshoxlar davrida sodir bo'lgan voqealar to'g'risida yozilgan. 4-bobda Eltuzarxonning ota-bobolari xayoti tasvirlangan. 5-bobda Eltuzarxonning tug'ilishidan bu asarning yozilib tamom bo'lishiga qadar bo'lgan voqealar xususida qalam tebratilgan. Xotima esa olimlar, avliyo, amir, bek, shoir, hunarmandlar xaqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

“Firdavs ul-iqbol asarining chet davlatlaridagi ahamiyati.

Mazkur asarni nafaqat bizning jonajon o'lkammizda balki chet elda ham ahamiyati kattadir. So'nggi yillarda chet davlatlarida ham bu asarga qiziqish kun sayin ortib bormoqda.

“Firdavsul-iqbol”ning to'qqizta qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lib, ulardan ikkitasi, Rossiya Fanlar akademiyasi Sankt-Peterburg Sharq qo'lyozmalari intitutida (inv. S 571 (590 oa), Ye-6-1 (590 ov), oltitasi O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida (inv. 821/1, 5364/1, 9979/1, 5071, 7422, H. Sulaymonov nomidagi fond. 275/1), yana bir nusxasi esa Xelsinki Xelsinki saqlanmoqda.

Munis va Ogahiy qalamiga mansub “Firdavs ul-iqbol” asari filologik jihatdan kam o'rganilgan, ammo o'zbek adabiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan sermahsul ijod namunasi hisoblanadi. Asarning bebaho qimmatini haqida o'zbek va xorij ilm fanida juda ko'plab fikrlar bildirilgan.

Amerikalik olim Yuriy Bregel(1925-2016) 1999-yilda mazkur asarning ingliz tilidagi tarjimasini nashr qildiradi. Asarning tili arabiy va forsiy iboralarga boy bo'lgani va o'ziga xos sharqona usulda yaratilgani bois, ingliz tiliga tarjimai oson kechmagan. Y.Bregel bu borada ko'plab olimlar bilan bamaslahat ish olib borgani, jumladan, rus olimi Oleg Akimushkin (Rossiya fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti), professor Robert Dankoff (Chikago universiteti), doktor Irina Viktorovna Yerofeyeva (Tarix va etnografiya instituti, Olma-ota), professor Boris Litvinskiy (Sharqshunoslik instituti, Moskva), Aleksandr Naymark (Indiana universiteti), doktor Benno van Dalen (Geografiya instituti,

Moskva), professor Devin Devis (Indiana universiteti) kabi sharqshunoslar unga juda katta yordam berganini mamnuniyat bilan eslaydi.<sup>5</sup>

“Firdavs ul-iqbol” asarining Y.Bregel tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matni nashrida noyob ma’lumotlarga to’la bo’lgan, hali fanimizda deyarli o’rganilmagan ingliz tilidagi so’zboshisi berilgan. Muallif hajman noan’anaviy bo’lgan so’zboshi orqali ingliz kitobxonlarini, dastavval, Munis va Ogahiy shaxsiyati, ularning ijodiy merosi bilan tanishtiradi.

Ogahiy tarjimalari haqida axborot berar ekan, Y.Bregel uning 6 ta tarixiy tarjimalaridan tashqari, yettinchi, ya’ni Muhammad Mahdiy Astrobodyning “Durrai Nodira” asari tarjimasi haqidagi axborot faqat kataloglarda uchrashi haqidagi noyob ma’lumotni keltiradi. Ushbu ma’lumotlar Y.Bregelning nihoyatda sinchkovlik bilan ish olib borganidan, Munis va Ogahiy ijodiga daxldor bir qancha manbalarni, dunyo kataloglarini o’rganganligidan dalolat beradi.

So’zboshining oxirida keltirishicha, Y.Bregel asar nashrini 1972-yilda Moskvada Sharqshunoslik institutida tayyorlashni boshlagan. Lekin uzoq yillik izlanishlar hamda turli texnik qiyinchiliklar tufayli “Firdavs ul-iqbol” asarining ilmiy-tanqidiy matnini nashr qilishga, nihoyat, 1988-yilda muvaffaq bo’lingan. Xulosa qilib aytganda, amerika olimi Y.Bregel umrining chorak asrini “Firdavs ul-iqbol” asarini har tomonlama tadqiq qilishga bag’ishlagan.

Ushbu asar tarixiy ahamiyat kasb etgani sababli ham muhim hisoblanadi. Firdavs ul-iqbol” asarining ahamiyati shundaki, asardan Xiva xonligining qariyb 300 yillik (1511 – 1825) tarixi, shu davr mobaynida istiqomat qilgan turli etnik guruhlarining ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o’rni, yer egaligi, soliq va majburiyatlar, ichki va tashqi savdo, diplomatik aloqalariga oid ma’lumotlar o’rin olgan. Ayniqsa, Qo’ng’irotda urug’larining Xorazm hududiga kelib joylashishi, bu urug’ vakillarining Xorazmdagi siyosiy voqealarda muhim rol o’ynay boshlaganlari tarixi hamda xonlik taxtiga erishish yo’lida qilgan tadbirlari bayon qilingan. Ogahiy yashagan davrda Xivada yetti marta xon almashgan, muallif ularning faoliyati davrida bo’lgan tarixiy voqealarni bayon etuvchi beshta tarixiy asarlarini yozishga muvaffaq bo’lgan. Shunday bo’lsa ham eng mashhuri “Firdavs ul-iqbol” bo’lib qoldi.

“Firdavsul-iqbol”ga kirgan turli janrlarga oid she’riy matnlar har biri kompozitsion tugalligi bilan alohida asar sifatida baholanishi mumkin. She’riy matnlar voqelikning nasriy talqinini biror-bir jihatdan takrorlamaydi, aksincha, ular matn yaxlitligini ta’minlashi, asarning asosiy g’oyasini yorqin badiiy bo’yoqlarda, poetik jozibadorlikda ifodalash va izohlashga xizmat qilishi jihatidan yuksak adabiy-estetik qiymatga ega.<sup>6</sup>

“Firdavsul-iqbol”ning Ogahiy yozgan qismidagi she’riy matnlar mavzuiga ko’ra quyidagichadir: 1) asarning yozilish sababi ta’rifi; 2) xon va uning a’yonlari vasi; 3) bunyodkorlik ishlari tavsifi; 4) harbiy mojarolar tasviri; 5) shikor – ov tavsifi; 6) to’y, sport va xalq o’yinlari talqini.

1. Asarning yozilish sababi ta’rifi. Ogahiy “Firdavsul-iqbol”ni davom ettirish vazifasi o’ziga yuklangani haqida, avval, nasrda mana bunday izoh beradi: “...hazrat sohibqironning

<sup>5</sup> BORASULOVA.D.D XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI.

<sup>6</sup> Nurboj ABDULHAKIM, filologiya fanlari doktori «Sharq yulduzi» jurnalining 2010-yil, 5-sonidan olindi.

julusi saodat ma'nusining o'n beshlonchi yilidiki, sana ming ikki yuz ellik beshda (1840 milodiy yil – N.A.) erdi, bu bandai bebizoat va qalilu-l-istitoat va bu go'shanishini vayronai alam va malolat, ahqari ibodi maliki-l-vahhob, zaifi najif Muhammadrizo mirob al-mutaxallis bi-l-Ogahiy ibn Erniyozbek birodarzoda va dastparvardai Munis mirob g'afarollohu zunubahum va satara uyubahumkim, ul hazratning xizmatkori qadimiy va jonsipori samimiyi erdim, nogoh jabhai ahvoling'a diydai marhamati va nosiyayi avqoting'a ayni inoyatidin nazari kimyoasarin solib, bu parishon avroqkim, tarkibidin ko'ngul mutahayyir, balki aqli kull mutaazzirdur, jam' qilib, itmomg'a yetkurmakni buyurub, bu dilxastani mazallat tufrog'idin ko'tardi va iftixorim boshin falaki davvordin o'tkardi<sup>7</sup>.

Darhaqiqat, muallif oldida mas'uliyatli vazifa turardi.

Asarni davom ettirishga kirishar ekan, Ogahiy masnaviy yo'li bilan munojot yozadi. Munojotda shoir juda qiyin, tuganmas ishga qo'l urganini ta'kidlab, uni poyoniga yetkazishda alloh taolodan madad so'raydi:

Iloho, man ojizu benavo,  
Tuganmas ish etgum durur ibtido.  
Hazin xotirimni yetur komig'a –  
Ki, ya'ni, ishim yetur anjomig'a.

2. Xon va uning a'yonlari vasfi. "Firdavsul-iqbol" badiiy uslubda yozilgani uchun unda muallifning adabiy-estetik ideali talqini masalasini o'rganish zarurati yuzaga keladi. Ta'kidlash kerakki, asarda xuddi shunday ideal xon timsolida tasvirlangan. Bu turkum she'rlarda vasf etilishicha, xonning adolati shu darajadagi, adlidan jahon mulki obod, u shunchalik saxiyki, xayru ehsonidan ulus xotiri shod. Birgina misol:

Hotami Toyiki karamdur ishi,  
Xalqg'a bermak bo'lubon varzishi.  
Ul dag'i bahra olib ehsonidin,  
Zillasitondur karami xonidin.

Muallifning bu turkum she'rlarda mubolag'ali tarzda ta'rifu tavsif etilishicha, agar sultoni sohibqiron qahr qilsa, zulm uyi vayron, lutf etsa, dahr eli shodon bo'ladi. Xorazm xonlarining, jumladan, Muhammad Rahimxonning saltanat ishlarida adolatga intilgan ma'rifatli hukmdor ekaniga shubha bildirmagan holda, ta'kidlash kerakki, Ogahiy xon va uning a'yonlari tasvirida real voqelikdan ko'ra ko'proq o'zining idealini vasf etgan. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, yuksak nazmiy mahorat bilan yozilgan bu turkum she'rlar shoirning ijtimoiy-estetik idealini belgilash va o'rganishda printsipliy ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki "Firdavs ul-iqbol" asari nafaqat badiiy-estetik balki tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega asar hisoblanib chet davlatlarida ham turli xil tadqiqotlar olib borilyapti mazkur asarni o'rganish bo'yisha.

<sup>7</sup>[WWW.ZIYOUZ.COM](http://WWW.ZIYOUZ.COM) KUTUBXONASI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.goldenscripts.navoiy-uni.uz/index.php/goldenscripts/article/view/70/66>
2. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
3. <https://kitobxon.com>
4. Nurboy Abdulhakim, "Sharq yulduzi" jurnalining 2010-yil, 5-sonidan
5. Borasulova, D.D "Firdavs ul-iqbol asarining o'rganilishi" maqoladan